

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI  
ICHIMLIK SUVI TA'MINOTI VA OQOVA SUVLARNI CHIQARIB  
YUBORISH TO'G'RISIDA**

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 28-dekabrda qabul qilingan  
Senat tomonidan 2022-yil 28-aprelda ma'qullangan

**1-bob. Umumiy qoidalar**

**1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi va qo'llanilish sohasi**

Ushbu Qonunning maqsadi ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunning amal qilishi ichimlik suvini qadoqlangan tarzda, tovar belgisidan va xizmat ko'rsatish belgisidan foydalangan holda ishlab chiqarishga hamda realizatsiya qilishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

**2-modda. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risidagi qonunchilik**

Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomada qoidalari qo'llaniladi.

**3-modda. Asosiy tushunchalar**

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

iste'molchi — ichimlik suvi ta'minoti tashkiloti bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq ichimlik suvi ta'minoti va (yoki) oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlardan foydalanuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs;

ichimlik suvi — organizmning ichimlik suviga bo'lgan talabini, shuningdek sanitariyaga oid ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun sanitariya qoidalari, normalariga va gigiyena normativlariga, davlat standartlariga muvofiq tayyorlangan, inson sog'lig'i uchun xavfsiz bo'lgan suv;

ichimlik suvi inshooti — ichimlik suvi ta'minoti tashkilotining tasarrufida bo'lgan, suv obyektidan suv olish va uni ichimlik suvi sifatida tayyorlash uchun texnologiyalarni o'z ichiga olgan inshoot;

ichimlik suvi ta'minoti — ichimlik suvini ichimlik suvi ta'minoti tarmoqlari orqali va (yoki) transportda iste'molchilarga yetkazib berish;

ichimlik suvi ta'minoti tashkiloti — faoliyatining asosiy turi iste'molchilarga ichimlik suvi ta'minoti va (yoki) oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lgan hamda maxsus vakolatli davlat organi tomonidan ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlarining reyestriga kiritilgan yuridik shaxs;

ishlab chiqarish oqova suvlari — tovarlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida hosil bo'ladigan oqova suvlari;

kommunal-ekologik normativ — ishlab chiqarish oqova suvlarini oqizib yuborishning iste'molchilar uchun yo'l qo'yiladigan eng yuqori ko'rsatkichlarini tartibga soluvchi hujjat;

lokal tozalash inshooti — oqova suvlarni oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga oqizib yuborishdan oldin dastlabki zararsizlantirish va tozalash uchun mo'ljallangan inshoot;

maishiy oqova suvlari — insonning hayot faoliyati jarayonida hosil bo'ladigan oqova suvlari;

oqova suvlari — suvni iste'mol qilish va (yoki) undan foydalanish natijasida hosil bo'ladigan hamda oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlari orqali oqizib yuboriladigan suv;

oqova suvlarni tozalash inshooti — ichimlik suvi ta'minoti tashkilotining tasarrufida bo'lган, oqova suvlarni qabul qilish va ularni belgilangan talablarga muvofiq zararsizlantirgan tarzda suv obyektlariga oqizib yuborish uchun mo'ljallangan inshoot;

oqova suvlarni chiqarib yuborish — oqova suvlarni ichimlik suvi ta'minoti tashkilotining tasarrufida bo'lган oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga qabul qilish va ularni oqova suvlarni tozalash inshootlariga chiqarib yuborish;

texnik shart — jismoniy va yuridik shaxslarni ichimlik suvi ta'minoti hamda (yoki) oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga ular uchun ular tomonidan ijro etilishi lozim bo'lган tadbirlar ro'yxatini o'z ichiga olgan hujjat.

#### **4-modda. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi asosiy prinsiplar**

Qonuniylik, ochiqlik va shaffoflik, iste'molchilar huquqlari hamda qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi asosiy prinsiplardir.

## **5-modda. Ichimlik suvi ta'minoti xizmatlariga doir kafolatlar**

O'zbekiston Respublikasi hududida iste'molchilar ning belgilangan sifatdagi ichimlik suvi bilan iste'mol normalari doirasida ta'minlanishi kafolatlanadi.

Ichimlik suvining iste'mol normalarini belgilash qonunchilikda belgilangan tartibda, umume'tirof etilgan standartlar va tasniflarga muvofiq amalga oshiriladi.

## **6-modda. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi davlat-xususiy sheriklik**

Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi davlat-xususiy sheriklik "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq amalga oshiriladi.

### **2-bob. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasini tartibga solish**

#### **7-modda. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari**

Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarining xavfsiz hamda ishchonchli ishlashini ta'minlash;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va avtomatlashtirilgan raqamlashtirish tizimlarini joriy etish;

resurslarni tejaydigan texnologiyalar joriy etilishini qo'llab-quvvatlash;

iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha sifatli xizmatlar ko'rsatish;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini modernizatsiya qilish hamda ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlarini texnik jihatdan qayta jihozlash maqsadida investitsiyalarni jalb etish;

sog'lom raqobat muhitini yaratish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

normativ-huquqiy hujjatlarning to'liq va o'z vaqtida ijro etilishi ustidan nazorat hamda monitoringni amalga oshirish;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlarning hisobga olinishini tashkil etish;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablarining bajarilishini ta'minlash;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

#### **8-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkaması:

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi hamda ularning amalga oshirilishini tashkil etadi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasida o'z vakolatlari doirasida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi;

davlat boshqaruvi organlarining ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkaması ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasida qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

#### **9-modda. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi hamda uning vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Maxsus vakolatli davlat organi:

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi dasturlar, strategiyalar hamda konsepsiyalarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

aholining ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar bilan qamrab olinishini monitoring qilish uchun yangilab boriladigan elektron bazani doimiy asosda yuritadi;

aholi punktlarini ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar bilan ta'minlash uchun davlat ijtimoiy buyurtmalarini beradi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishida xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida kengaytirish choralarini ko'radi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihamonini ishlab chiqadi hamda ularni o'z vakolatlari doirasida qabul qiladi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi tarif siyosatini shakllantirishga ko'maklashadi;

O'zbekiston Respublikasidagi ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini rivojlantirishning bosh sxemasi ishlab chiqilishini ta'minlaydi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni tashkil etadi hamda muvofiqlashtiradi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasida kadrlarga bo'lgan ehtiyojni tahlil qiladi hamda ularni tayyorlashda ishtirok etadi;

ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlarining reyestrini yuritadi va uni o'zining rasmiy veb-saytida joylashtiradi, ular faoliyati samaradorligining asosiy mezonlarini belgilaydi va baholaydi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi loyihamonning amalga oshirilishini davlat kapital mablag'lari hamda davlat kafolatlari ostida jalb etilgan chet el investitsiyalari hisobidan ta'minlaydi;

ichimlik suvi va oqova suvlarni tozalash inshootlarini texnologik auditdan o'tkazishni tashkil etadi hamda suvni tejash bo'yicha zarur choralarini belgilaydi;

ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari uchun suvning texnologik jihatdan sarflanishini va yo'qotilishini hisob-kitob qilish tartibini,

shuningdek ularning yo'l qo'yiladigan normalarini (limitlarini) belgilaydi;

ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari tomonidan ijro etilishi majburiy bo'lgan hujjatlarni o'z vakolatlari doirasida qabul qiladi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish obyektlarini qurish hamda rekonstruksiya qilishga doir aniq yo'naltirilgan dasturlarni ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini rivojlantirish rejali asosida shakllantiradi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish obyektlarini qurish hamda rekonstruksiya qilishga doir aniq yo'naltirilgan ro'yxatlarni ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar bilan ta'minlanishini istiqbolli prognoz qilish maqsadida muvofiqlashtiradi;

xalqaro moliya institutlari hamda xalqaro davlat moliya institutlari ishtirokida amalga oshiriladigan ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi loyihalar bo'yicha loyihaoldi hamda loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, kelishib olish va tasdiqlash choralarini ko'radi, shuningdek loyihalarni moliyalashtirishni amalga oshiradi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi loyihalarning ro'yobga chiqarilishi monitoringini mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasida qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

#### **10-modda. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi davlat nazorati organi hamda uning vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi huzuridagi Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi hamda uning hududiy inspeksiyalari ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasida davlat nazoratini amalga oshiruvchi organdir (bundan buyon matnda davlat nazorati organi deb yuritiladi).

Davlat nazorati organi:

ichimlik suvini samarali ishlab chiqarish, yetkazib berish, realizatsiya qilish, ichimlik suvidan oqilona foydalanish, shuningdek oqova suvlarni chiqarib yuborish va tozalash bo'yicha xizmatlar sohasida texnik jihatdan tartibga solish to'g'risidagi qonunchilik

hamda normativ hujjatlar talablariga riosa etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

ichimlik suvi inshootlarini va oqova suvlarni tozalash inshootlarini texnologik auditdan o'tkazadi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlariga ulanishda texnik shartlar talablariga riosa etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi, shuningdek ushbu tarmoqlarga o'zboshimchalik bilan ulanishning oldini olish bo'yicha choralar ko'radi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish chog'ida ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlaridagi va boshqa inshootlardagi avariylar bartaraf etilishini, ular yuzaga kelishining oldini olish bo'yicha ishlab chiqilgan tadbirlarning amalga oshirilishini nazorat qiladi;

suv obyektlaridan suv olishdan to iste'molchilarga realizatsiya qilishga qadar bo'lgan barcha jarayonlarda suvning texnologik jihatdan sarflanishi va yo'qotilishining yo'l qo'yiladigan normalariga riosa etilishini nazorat qiladi;

yer osti suvlari quduqlarining holati va ulardan foydalanish shartlariga riosa etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

iste'molchilarining ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar bilan qamrab olinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari tomonidan iste'molchilarga yetkazib berilayotgan ichimlik suvining sifati va belgilangan talablarga muvofiqligi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlariga hamda iste'molchilarga ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish yuzasidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;

oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmog'iga normadan yuqori darajada ifloslantirilgan oqova suvlarni oqizib yuborganlik uchun kompensatsiya to'lovlarini qonunchilikda belgilangan tartibda hisob-kitob qiladi hamda jismoniy va yuridik shaxslardan undiradi;

ichimlik suvini olishning belgilangan limitlariga riosa etilishini nazorat qiladi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi ma'muriy huquqbaزارликлар то'г'рисидаги ишларни qonunchilikda belgilangan tartibda yuritadi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish obyektlarida, shu jumladan yer osti suvlari quduqlarida qurilish-montaj ishlari (rekonstruksiya qilish) ustidan nazorat olib boradi, loyiha-smeta hujjatlarini tahlil qiladi.

Davlat nazorati organi ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasida qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **11-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi vakolatlari**

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasini rivojlantirishga qaratilgan hududiy dasturlarni ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishiga xususiy sektorni jalb etishga ko'maklashadi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi loyihalarning ro'yobga chiqarilishi monitoringini amalga oshiradi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar uchun tariflarni tasdiqlaydi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasida qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **12-modda. Fuqarolarning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining hamda fuqarolik jamiyatini boshqa institutlarining ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi tadbirdarda ishtirok etishi**

Fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari:

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasida davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

Fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari qonunchilikka muvofiq ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi boshqa tadbirdarda ham ishtirok etishi mumkin.

### **3-bob. Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari, ularning asosiy vazifalari, huquqlari va majburiyatlari**

#### **13-modda. Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakli**

Agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lса, har qanday tashkiliy-huquqiy shakldagi tashkilotlar ichimlik suvi ta'minoti tashkiloti sifatida faoliyatni amalga oshirishi mumkin.

Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlarining reyestri ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlarining ro'yxatini o'z ichiga oladi va maxsus vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

#### **14-modda. Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotini boshqarish**

Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotini boshqarish uning ta'sis hujjatlariga va ichimlik suvi ta'minoti tashkiloti tomonidan qabul qilingan boshqa hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda boshqarish uchun javob beradigan tashkilot belgilanishi mumkin.

#### **15-modda. Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlarining asosiy vazifalari**

Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

ichimlik suvini tayyorlash, shuningdek iste'molchilarni ichimlik suvi bilan shartnomaga asosida uzluksiz va bir maromda ta'minlash;

iste'molchilarga shartnama asosida oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;

oqova suvlarni qabul qilish va ularni qonunchilik talablariga muvofiq tozalash;

ichimlik va oqova suv quvurlari hamda inshootlaridan samarali foydalanish, ularni soz holatda saqlash, avariylar va nosozliklarni o'z vaqtida bartaraf etish;

suvning texnologik jihatdan sarflanishini va yo'qotilishini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan iste'mol qilinayotgan suvning va ko'rsatilayotgan xizmatlarning hajmini hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish hisobidan kamaytirish;

ichimlik suvini tayyorlashda ichimlik suvi inshootlari elektr energiyasi bilan ta'minlanishi uchun zarur choralar ko'rish;

zamonaviy suvni hisobga olish asboblarini va energiyani tejaydigan nasos uskunalarini o'rnatish;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar ko'rsatganlik uchun to'lovlarni o'z vaqtida yig'ish;

ichimlik suvi tashkilotining moliyaviy-iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta'minlash bo'yicha amaliy choralar ko'rish;

ichimlik suvi ta'minotini va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasini rivojlantirishga, aholini ushbu sohadagi xizmatlar bilan qamrab olishni kengaytirishga qaratilgan dasturlar, strategiyalar hamda konsepsiyalarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

oqova suvlarni tozalash inshootlaridagi oqova suvlarni ifloslantiruvchi moddalar yo'l qo'yiladigan eng yuqori normaga yetkazilguniga qadar tozalashni tashkil etish;

ichimlik suvining yetkazib berilishi va undan foydalanilishi monitoringini amalga oshirish;

suvning texnologik jihatdan sarflanishiga va yo'qotilishiga doir yig'ma hisobotni ishlab chiqish hamda maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etish;

yuridik shaxslarga ichimlik suvini yetkazib berish uchun limitlar belgilash.

## **16-modda. Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlarining huquqlari va majburiyatları**

Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari quyidagi huquqlarga ega:

1) ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni quyidagi hollarda iste'molchini kamida besh kalendar kun oldin xabardor qilgan holda to'liq yoki qisman to'xtatish:

yuridik shaxslarning ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlari, qurilmalari hamda inshootlari texnik jihatdan yaroqsiz holga kelganda, ichimlik suvi ta'minoti tashkiloti tomonidan aniqlangan texnik kamchiliklar bartaraf etilmaganda;

ko'rsatilgan ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar uchun iste'molchilarining qarzdorligi mavjud bo'lganda;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlari, ichimlik suvi va oqova suvlarni tozalash inshootlari rejali ta'mirlanayotganda, ularga profilaktik jihatdan xizmat ko'rsatilayotganda, shuningdek yangi iste'molchilar ulanayotganda;

2) ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni quyidagi hollarda iste'molchini ogohlantirmasdan to'liq yoki qisman to'xtatish:

tabiiy ofatlar chog'ida;

elektr energiyasini yetkazib berish ichimlik suvi ta'minoti tashkiloti faoliyati bilan bog'liq bo'limgan holda to'xtatib turilganda;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlarida, shuningdek ichimlik suvi va oqova suvlarni tozalash inshootlarida avariya bo'lganda;

yong'in o'chog'iga ichimlik suvi yetkazib berishni ko'paytirish zarur bo'lganda;

ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari tasarrufida bo'lgan ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga jismoniy hamda yuridik shaxslarning o'zboshimchalik bilan ulanganligi aniqlanganda;

3) oqova suvlarni chiqarib yuborish joylarini, shuningdek iste'molchilarga beriladigan ichimlik suvini hisobga olish joylarini har oyda kamida bir marta inventarizatsiyadan o'tkazish;

4) ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish qoidalalarining buzilishlari to'g'risida davlat nazorati organini yozma yoki elektron shaklda xabardor qilish.

Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari:

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlarning uzlusizligini va xavfsizligini ta'minlashi;

oqova suvlarni tozalashni amalga oshirishi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlari, shuningdek ichimlik suvi va oqova suvlarni tozalash inshootlari texnik holatining muntazam monitoringini olib borishi;

ichimlik suvi ta'minoti tarmoqlaridagi va ichimlik suvi inshootlaridagi ichimlik suvi sifatining monitoringini olib borishi;

iste'molchilarga yetkazilgan zararning o'rnini qonunchilikda belgilangan tartibda qoplashi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlarida ta'mirlash ishlari natijasida shikast yetkazilgan obyektlarni hamda boshqa inshootlarni tiklashi;

ichimlik suvi ta'minoti tizimidagi davomiyligi 12 soatdan ko'p bo'lgan rejali uzib qo'yishlarni yoki to'xtalishlarni bartaraf etish chog'ida aholini transportda ichimlik suvi bilan ta'minlashi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimida avariylar aniqlangan kundan e'tiboran bir sutka ichida ularning sabablari, xizmatlar cheklanadigan muddatlar, shuningdek ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining o'zgarishi sabablari haqida iste'molchilarni xabardor qilishi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar uchun tariflar hamda maxsus ustamalar o'zgarishi to'g'risida ushbu o'zgarishlar joriy etilishidan o'n besh kalender kun oldin iste'molchilarni ommaviy axborot vositalari orqali va o'z rasmiy veb-saytida xabardor qilishi;

suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning rejalashtirayotgan to'xtatilishi haqida iste'molchilarni besh kalender kun oldin xabardor qilishi;

birinchi navbatda jismoniy shaxslarning, oziq-ovqat sanoati korxonalarining va tibbiyot tashkilotlarining ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojlari ta'minlanishini amalga oshirishi;

davlat nazorati organi tomonidan nazorat tadbirlarini o'tkazishga ko'maklashishi;

ichimlik suvi ta'minoti iste'molchilariga ko'rsatilayotgan xizmatlar va oqova suvlarni chiqarib yuborish hajmini, suvni hisobga olish asboblarining hamda yong'in gidrantlarining holatini oyiga kamida bir marta o'rganishi;

davlat nazorati organini ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga o'zboshimcha ulanishning aniqlangan hollari to'g'risida xabardor qilishi;

maxsus vakolatli davlat organining ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi topshiriqlari bajarilishini ta'minlashi shart.

Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va ularning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

### **17-modda. Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlarining javobgarligi**

Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari:

qonunchilikka hamda shartnoma shartlariga muvofiq ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha iste'molchilarga sifatli xizmatlar ko'rsatmaganlik;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga belgilangan tartibda ulanish uchun texnik shartlarni iste'molchilarga o'z vaqtida taqdim etmaganlik;

iste'molchilarni svjni hisobga olish asboblarini belgilangan muddatlarda tekshiruvdan o'tkazish haqida ogohlantirmaganlik;

iste'molchining hayotiga, sog'lig'iga hamda mol-mulkiga moddiy va ma'naviy zarar yetkazganlik;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarining texnik holati uchun ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlarining foydalanishga doir javobgarligi chegaralari doirasidagi avariyalarni o'z vaqtida bartaraf etmaganlik;

qonunchilikka va shartnoma shartlariga muvofiq ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlarining zimmasiga yuklatilgan boshqa majburiatlarni bajarmaganlik uchun javobgar bo'ladi.

### **4-bob. Iste'molchilarning huquqlari va majburiyatları**

#### **18-modda. Iste'molchilarning huquqlari**

Iste'molchilar quyidagi huquqlarga ega:

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlarning uzluksiz va xavfsiz ko'rsatilishini, shuningdek o'z hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga xavf tug'dirmaydigan sifatga va miqdorga ega bo'lgan ichimlik suvi berilishini shartnoma shartlariga muvofiq talab qilish;

ichimlik suvi ta'minoti tashkiloti shartnomada ko'rsatilgan o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, jarimalar (penyalar) va boshqa to'lovlar to'lanishini qonunchilikka muvofiq talab qilish;

asossiz ravishda undirilgan to'lovlarning qaytarilishini ichimlik suvi ta'minoti tashkilotidan talab qilish;

ichimlik suvi ta'minoti va (yoki) oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar uchun tegishli to'lovlarni to'liq to'lagan holda shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish;

ichimlik suvining sifati to'g'risidagi axborotni hamda ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun qarzdorlik haqidagi ma'lumotlarni ichimlik suvi ta'minoti tashkilotidan bepul olish.

Iste'molchilar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

## **19-modda. Iste'molchilarning majburiyatları**

Iste'molchilar:

ichimlik suvidan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanishi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar uchun to'lovnini o'z vaqtida amalga oshirishi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar ko'rsatganlik uchun tariflar oshgan taqdirda, oldindan to'langan to'loving qayta hisob-kitobini amalga oshirishi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlaridagi, inshootlardagi avariylar yoki shikastlanishlar, ichimlik suvini hisobga olish asboblaridagi va ularning plombalaridagi shikastlanishlar to'g'risida ichimlik suvi ta'minoti tashkilotini xabardor qilishi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlaridagi texnik holat uchun iste'molchilarining foydalanishiga doir javobgarligi chegaralari doirasidagi avariyalarni o'z vaqtida bartaraf etishi;

suvni hisobga olish asboblarining aniq ko'rsatkichlarini ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlariga o'z vaqtida taqdim etishi;

ishlab chiqarish oqova suvlaridagi ifloslantiruvchi moddalarning lokal tozalash inshootlarida belgilangan normativlarga qadar tozalanishini ta'minlashi;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlardan foydalanish uchun ruxsat etilgan nuqtalarga ulanishi shart.

Iste'molchilarning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

**5-bob. Ichimlik suvi ta'minoti manbalarini tanlash va ulardan foydalanish.**  
**Ichimlik suvi va oqova suvlarni tozalash inshootlarining sanitariya-muhofaza zonalari**

**20-modda. Ichimlik suvi ta'minoti manbalari**

Sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga, davlat standartlariga muvofiq bo'lgan suv obyektlari birinchi navbatda ichimlik suvi ta'minoti ehtiyojlari uchun foydalanishga beriladi.

Yer osti suvlari zaxiralari kam bo'lgan taqdirda, ular texnik-iqtisodiy asosga muvofiq ichimlik suvi ta'minoti tashkiloti tomonidan sun'iy ravishda to'ldirilishi kerak.

**21-modda. Suv obyektlaridan ichimlik suvi ta'minoti ehtiyojlari uchun foydalanish**

Ichimlik suvi ta'minoti ehtiyojlari uchun birinchi navbatda yer usti suv obyektlaridan, keyin esa yer osti suv obyektlaridan O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, Ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ichimlik suvi manbalarining yetarliligi to'g'risidagi hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining ular sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga, davlat standartlariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosalariga muvofiq foydalaniadi.

**22-modda. Ichimlik suvi va oqova suvlarni tozalash inshootlarining sanitariya-muhofaza zonalari**

Ichimlik suvi va oqova suvlarni tozalash inshootlarining, ichimlik suvi uchun suv olish joylarining sanitariya-muhofaza zonalarini aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlarining muhofaza qilinadigan zonalari shaharsozlik normalari va qoidalari muvofiq belgilanadi.

Ichimlik suvi uchun suv olish, yer usti hamda yer osti manbalari joylarida joylashgan sanitariya-muhofaza zonalarda ichimlik suvi ta'minotiga taalluqli bo'limgan xo'jalik faoliyatini amalga oshirishga

hamda sanoat va fuqarolik obyektlarini (binolar va inshootlarni) qurishga yo'l qo'yilmaydi.

## **6-bob. Ichimlik suvini tayyorlash va yetkazib berish**

### **23-modda. Ichimlik suvi inshootlarining toifalari**

Ichimlik suvi inshootlarining turi va sxemasini tanlash joyning va suv obyektlarining geologik, gidrogeologik va sanitariya shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Ichimlik suvi inshootlari suv ta'minoti darajasi bo'yicha quyidagi toifalarga bo'linadi:

I toifa — xizmat ko'rsatiladigan aholi soni 50 mingdan ortiq;

II toifa — xizmat ko'rsatiladigan aholi soni 5 mingdan 50 minggacha;

III toifa — xizmat ko'rsatiladigan aholi soni 5 minggacha.

### **24-modda. Ichimlik suvi inshootlarida ichimlik suvini tayyorlashning texnologik bosqichlari**

Ichimlik suvini tayyorlash suv obyektidagi suvning sifati, ichimlik suvi inshootining quvvati va uning geografik joylashuvi hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Yer usti suv obyektlaridan olinadigan ichimlik suvini tayyorlashning texnologik bosqichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

suv loyqaligini tindirishni;

suvni sizotlashni hamda zararsizlantirishni;

sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, davlat standartlari talablariga muvofiq ichimlik suvini tayyorlashni (ishlab chiqarishni).

Yer osti suv obyektlaridan olinadigan ichimlik suvini tayyorlashning texnologik bosqichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

suvni tortib chiqarishni;

suvni zararsizlantirishni;

sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, davlat standartlari talablariga muvofiq ichimlik suvini tayyorlashni (ishlab chiqarishni).

### **25-modda. Ichimlik suvining sifati**

chimlik suvi epidemiologik, radiatsiyaviy va kimyoviy jihatdan xavfsiz bo'lishi kerak.

Suv obyektlaridan olinadigan suvning va tayyorlangan ichimlik suvining tarkibiga doir talablar, shuningdek tahlil o'tkazish muddatlari hamda tahlillarning turlari davlat standartlariga muvofiq belgilanadi.

Ichimlik suvi sifatining tahlili ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlarining laboratoriylarida amalga oshiriladi. Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlarida laboratoriylar mavjud bo'lмаган тақдирда, ichimlik suvi sifatining tahlili shartnomaga asosida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining yoki davlat nazorati organining laboratoriylarida amalga oshiriladi.

Ichimlik suvining sifati ustidan davlat nazorati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va davlat nazorati organi tomonidan amalga oshiriladi.

### **26-modda. Laboratoriylar vakolatlarini tasdiqlash**

Ichimlik suvi sifatining tahlili o'tkaziladigan laboratoriyalarning malakaliligi vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak.

### **27-modda. Ichimlik suvini yetkazib berish**

Ichimlik suvi iste'molchilarning ehtiyojlari uchun ichimlik suvi ta'minoti tarmoqlari yoki transportda yetkazib berilishi mumkin.

Ichimlik suvi ta'minoti tizimlari masofadan ma'lumot uzatuvchi zamonaviy hisobga olish asboblari va manometrlar bilan jihozlanadi hamda ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari tomonidan dispatcherlik xizmatlari orqali boshqariladi.

Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari avariylar va nosozliklarning oldini olish maqsadida ichimlik suvi ta'minoti tarmoqlari, inshootlari va uskunalarini muntazam ravishda texnik tekshiruvdan o'tkazadi.

### **28-modda. Ichimlik suvi ta'minoti xizmatlarini ko'rsatish chegaralari**

Ichimlik suvi ta'minoti tashkiloti ichimlik suvi ta'minoti tarmog'ining iste'molchiga tegishli hududga kirgan qismiga (ko'p qavatli uylarning kiruvchi qismiga) qadar javobgar bo'ladi va mazkur chegaraga qadar xizmatlar ko'rsatadi.

Ko'p kvartirali uyni boshqarish organi ichimlik suvi ta'minoti tarmog'ining ko'p kvartirali uylarga kirgan qismidan to iste'molchiga tegishli hududga qadar javobgar bo'ladi va unga xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydi.

Iste'molchilar o'ziga tegishli hududdagi ichimlik suvi ta'minoti tarmog'i uchun javobgar bo'ladi.

### **7-bob. Oqova suvlarni chiqarib yuborish va tozalash**

## **29-modda. Oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlaridan va oqova suvlarni tozalash inshootlaridan foydalanish**

Oqova suvlari iste'molchilardan oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlari orqali ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlarining oqova suvlarni tozalash inshootlariga keyinchalik zararsizlantirish va tozalash uchun uzluksiz tarzda yetkazib beriladi.

Maishiy va ishlab chiqarish oqova suvlari oqova suvlarni tozalash inshootlari tomonidan qabul qilinadi, ekologik normalar va qoidalarga muvofiq tozalanadi va ulardan xavfsiz foydalanilishi ta'minlanadi.

## **30-modda. Oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish chegaralari**

Ichimlik suvi ta'minoti tashkiloti oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmog'ining iste'molchiga tegishli hududga kirgan qismiga (ko'p qavatli uylarning kiruvchi qismiga) qadar javobgar bo'ladi va mazkur chegaraga qadar xizmatlar ko'rsatadi.

Ko'p kvartirali uyni boshqarish organi ko'p kvartirali uyda oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmog'i uchun javobgar bo'ladi va unga xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydi.

Iste'molchilar o'ziga tegishli hududdagi oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmog'i uchun javobgar bo'ladi.

## **31-modda. Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish xususiyatlari**

Kommunal-ekologik normativ ishlab chiqarish oqova suvlarini oqizib yuboruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqiladi hamda ichimlik suvi ta'minoti tashkiloti tomonidan tasdiqlanadi.

Belgilangan normadan yuqori darajada ifloslangan ishlab chiqarish oqova suvlarini oqizib yuboruvchi yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar oqova suvlarni lokal tozalash inshootlarida birlamchi tozalash ishlarini bajarishi kerak.

Yangi iste'molchilarni, shu jumladan mavjud iste'molchilarning yangitdan ishga tushiriladigan, tovarlarni ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) jarayonida belgilangan normadan yuqori darajada ifloslangan oqova suvlarni hosil qiluvchi obyektlarini oqova suvlari tarmoqlariga ularsga faqat oqova suvlarning belgilangan normaga qadar tozalanishini ta'minlaydigan lokal tozalash inshootlari mavjud bo'lган taqdirda yo'l qo'yiladi.

## **32-modda. Belgilangan normadan yuqori darajada ifloslangan oqova suvlarni oqizib yuborganlik uchun kompensatsiya to'lovleri**

Oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga belgilangan normadan yuqori darajada ifloslangan oqova suvlarni oqizayotgan jismoniy va yuridik shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda kompensatsiya to'lovlarini amalga oshiradi.

#### **8-bob. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi loyihalarni amalga oshirish**

#### **33-modda. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi loyihalar**

Moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan aholiga ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni kengaytirish hamda takomillashtirish yuzasidan loyiha takliflari maxsus vakolatli davlat organi tomonidan shakllantiriladi va tegishinchcha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar Kengashlari muhokamasiga kiritiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesidagi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar Kengashlaridagi muhokama yakunlari bo'yicha ma'qullangan ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi loyihalar tegishli dasturlar asosida amalga oshiriladi.

Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi loyihalarda majburiy tartibda:

ichimlik va oqova suv quvurlarini uy xo'jaliklarigacha o'tkazish va suvni hisobga olish asboblarini o'rnatish nazarda tutiladi;

ichimlik suvi ta'minoti obyektlarining atrof muhitga, shuningdek qo'shni hududlardagi mavjud va rejalashtirilayotgan ichimlik suvi ta'minoti obyektlariga ta'siri hisobga olinadi.

Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha bitta obyektni qurish va rekonstruksiya qilishni turli manbalardan, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda moliyalashtirishga yo'l qo'yilmaydi, bundan xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi loyihalar mustasno.

#### **34-modda. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasida davlat ijtimoiy buyurtmasi**

Davlat ijtimoiy buyurtmasi doirasida ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish markazlashtirilgan ichimlik suvi ta'minoti mavjud bo'lmagan tumanlarda tashkil etiladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasi doirasida ichimlik

suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi ijtimoiy loyihalarni ro'yobga chiqarish ijrochini tanlov asosida aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi, tanlov haqidagi e'lon ommaviy axborot vositalariga, shu jumladan elektron ommaviy axborot vositalariga joylashtiriladi.

Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi ijtimoiy loyihalar nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga davlat ijtimoiy buyurtmasini berish orqali maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

#### **9-bob. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish**

#### **35-modda. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi iste'molchilarining guruhlari**

Ichimlik suviga va oqova suvlarni chiqarib yuborishga bo'lgan ehtiyojga ko'ra iste'molchilar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

birinchi guruh — jismoniy shaxslar;

ikkinci guruh — idoraviy uy-joy fondi va yotoqxonalar, budget tashkilotlari, diniy tashkilotlar, elchixonalar, diplomatik vakolatxonalar hamda ularga tenglashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan xalqaro tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ko'p kvartirali uyni boshqaruvchi tashkilotlar, uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari va issiqlik ta'minoti tashkilotlari;

uchinchi guruh — birinchi va ikkinchi guruhlarga kirmaydigan yuridik shaxslar.

#### **36-modda. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga jismoniy va yuridik shaxslarni ularash**

Jismoniy va yuridik shaxslarning ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga ulanishi ularash nuqtasi orqali amalga oshiriladi.

Ichimlik suvining miqdori va bosimi, shuningdek oqova suvlarni qabul qilish sig'imi yetarli bo'lganda, jismoniy va yuridik shaxslar ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga ichimlik suvi ta'minoti tashkiloti tomonidan taqdim etilgan texnik shartlar asosida ulanishi mumkin.

Taqdim etilgan texnik shartlar asosida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan tayyorlangan ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga ulanish loyihalari ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari bilan kelishib olinadi.

### **37-modda. Ichimlik suvi ta'minoti va (yoki) oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun shartnoma**

Ichimlik suvi ta'minoti va (yoki) oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish iste'molchi bilan tuziladigan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

Shartnomada ichimlik suvining bosimi, sifati, oqova suvlarni chiqarib yuborish quvvati, taraflarning huquqlari, majburiyatları va javobgarligi, hisob-kitoblar va to'lovlar tartibi, nizolarni hal etish tartibi, yengib bo'lmas kuch holatlari hamda shartnomaning amal qilish muddati ko'rsatilgan bo'llishi kerak.

Taraflarning kelishuviga ko'ra shartnomaga boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin.

Jismoniy shaxslar bilan tuziladigan shartnoma muddatsizdir.

### **38-modda. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishga doir taqiqlar**

Quyidagi hollarda ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish va ulardan foydalanish taqiqlanadi:

shartnoma tuzmasdan;

ushbu Qonunning **36-moddasida** belgilangan ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga ularning ulash tartibining buzilishi bartaraf etilgunga qadar.

### **10-bob. Ichimlik suvini transportda yetkazib berish**

#### **39-modda. Ichimlik suvini transportda yetkazib berish tartibi**

Ichimlik suvi jismoniy va yuridik shaxslarga ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari yoki mazkur sohada faoliyatni amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan transportda yetkazib berilishi mumkin.

Ichimlik suvi quyidagi hollarda transportda yetkazib beriladi:

ichimlik suvi ta'minoti tashkilotining tarmoqlari mavjud bo'limgan hududlarga;

ichimlik suvi quvurlaridagi va ichimlik suvi ta'minoti tarmoqlarining boshqa inshootlaridagi avariylar chog'ida;

ichimlik suvi ta'minoti tarmoqlarida ta'mirlash-tiklash ishlari amalga oshirilayotganda;

favqulodda vaziyatlarda;

qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Ichimlik suvini transportda yetkazib berish sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga, davlat standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

#### **40-modda. Ichimlik suvini transportda yetkazib berishga doir asosiy talablar**

Ichimlik suvini ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari bo'lmagan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan transportda yetkazib berish uchun transport vositasi sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq bo'lishi, transportda o'rnatilgan idish esa kamida bir kub metr suv sig'imiga ega bo'lishi kerak.

Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari tomonidan transportda suv yetkazib berish bo'yicha transport xizmatlarini ko'rsatganlik uchun tariflar va to'lov tartibga solinadigan hamda shaffof bo'lishi kerak.

Ichimlik suvini transportda ushbu modda talablariga rioya etmagan holda yetkazib berish taqiqilanadi.

#### **41-modda. Ichimlik suvini yetkazib beradigan transport vositalariga qo'yiladigan asosiy talablar**

Ichimlik suvini yetkazib beradigan transport vositalari sog'lqnini saqlash organlarida ularning sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiqligi jihatidan har o'n besh kunda kamida bir marta tekshirilishi lozim.

Haydovchilar va ichimlik suvini tayyorlashda bevosita ishtirok etuvchi xizmat ko'rsatuvchilar O'zbekiston Respublikasi Sog'lqnini saqlash vazirligi tomonidan belgilangan talablarga muvofiq tibbiy ko'rikdan o'tishi kerak.

#### **11-bob. Suvning yo'qotilishi**

#### **42-modda. Suvning texnologik ehtiyojlar uchun sarflanishi va yo'qotilishi**

Ichimlik suvi ta'minoti tashkiloti tomonidan ichimlik suvini tayyorlash va ishlab chiqarish jarayonida suvning texnologik ehtiyojlar uchun sarflanishi va yo'qotilishi suvning texnologik jihatdan sarflanishi, ichimlik suvi ta'minoti tarmoqlaridagi hisobga olinmagan yo'qotishlar hamda ichimlik suvi ta'minoti tashkiloti tomonidan o'z ehtiyojlari uchun ichimlik suvi sarflanishidan tarkib topadi.

#### **43-modda. Suvning texnologik jihatdan sarflanishini va yo'qotilishini hisob-kitob qilish tartibi**

Suvning texnologik jihatdan sarflanishini va yo'qotilishini hisob-kitob qilish tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Suvning texnologik jihatdan sarflanishini va yo'qotilishini hisob-kitob qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

ichimlik suvi inshootlaridagi texnologik ehtiyojlar uchun sarflanishni;

suvning ichimlik suvi ta'minoti tarmoqlarini ta'mirlash, butlovchi va ehtiyot qismlarni ta'mirlash va (yoki) almashtirish chog'ida sarflanishni;

ichimlik suvining yangi yotqizilgan ichimlik suvi ta'minoti tarmoqlarini ularash uchun sarflanishni;

suvning, shu jumladan ichimlik suvining ichimlik suvi ta'minoti tizimidagi avariylar va nosozliklar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar natijasida yo'qotilishini;

nosozliklar natijasida ichimlik suvi ta'minoti tarmog'idan ichimlik suvining yo'qotilishini;

ichimlik suvining yong'inni o'chirish ehtiyojlari (yong'inni o'chirish, o't o'chirishga qarshi gidrantlarni tekshirish, yong'in-taktik mashqlar va mashg'ulotlar) uchun yo'qotilishini;

ichimlik suvi ta'minoti tashkiloti tomonidan o'z ehtiyojlarini uchun ichimlik suvi sarflanishini.

Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari suvni o'z ehtiyojlarini uchun sarflashda suvni hisobga olish asboblaridan majburiy tartibda foydalanishi kerak.

#### **44-modda. Suvning texnologik jihatdan sarflanishiga va yo'qotilishiga oid hisobot hamda normalashtirish**

Suvning texnologik jihatdan sarflanishiga va yo'qotilishiga oid hisobot har yili ichimlik suvi ta'minoti tashkiloti tomonidan tuziladi hamda hisobot yildan keyingi 1-martdan kechikmay maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etiladi.

Maxsus vakolatli davlat organi ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari uchun quyidagilarni inobatga olgan holda suvning joriy yil uchun texnologik jihatdan sarflanishi va yo'qotilishi normalarini (limitlarini) 1-apreldan kechiktirmay belgilaydi:

ichimlik suvi ta'minoti tashkilotining avvalgi yil uchun suvning texnologik xarajatlari va yo'qotishlari haqidagi hisobotini;

ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari tomonidan xizmat ko'rsatiladigan hududlarda ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasida amalga oshirilayotgan loyihalarni va joriy etilayotgan obyektlarini.

## **12-bob. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar uchun tariflar**

### **45-modda. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar uchun tariflarni shakllantirish (qayta ko'rib chiqish)**

Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar, shu jumladan ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari tomonidan ichimlik suvini transportda yetkazib berish uchun tariflarni qonunchilikda belgilangan tartibda ishlab chiqadi.

Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar uchun tariflar mahsulot tannarxiga kiritilgan xarajatlar, joriy xarajatlar, moliyaviy xarajatlar, soliqlar (suvning texnologik jihatdan normativdan yuqori darajada sarflanganligi va yo'qotilganligi uchun soliqlardan tashqari) va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek sof foyda summasidan shakllantiriladi.

Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar uchun tariflarni shakllantirishda ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish uchun xarajatlar hisobga olinadi.

Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar, shu jumladan transport xizmatlari uchun tariflar darajasiga ta'sir ko'rsatadigan omillar keskin o'zgargan taqdirda, tariflarni o'zgartirish bo'yicha takliflar loyihasi tegishli mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organi tomonidan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida jamoatchilik muhokamasi uchun joylashtiriladi.

Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari jamoatchilik muhokamasi tugaganidan keyin ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar uchun tariflarni qayta ko'rib chiqish tashabbusi bilan hududiy monopoliyaga qarshi kurashish va moliya organlariga murojaat qiladi.

Hududiy monopoliyaga qarshi kurashish va moliya organlari tariflarni qayta ko'rib chiqish haqidagi takliflar olingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda ichimlik suvi ta'minoti tashkilotiga ushbu takliflarni rad etish, qayta ko'rib chiqish yoki qabul qilish to'g'risidagi o'z xulosalarini taqdim etadi.

Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar uchun tariflar budget parametrlari tasdiqlanganidan keyin bir yil davomida qayta ko'rib chiqilishi natijasida budget tashkilotlari uchun zarur bo'lgan qo'shimcha mablag'lar O'zbekiston Respublikasining respublika budgetidan,

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budgetidan, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy budgetlaridan ajratiladi.

#### **46-modda. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar uchun tariflarni tasdiqlash**

Ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlarga, shu jumladan transportda ichimlik suvini yetkazib berishga oid tariflarni o'zgartirishga doir takliflarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga ushbu Qonun 45-moddasining **oltinchi qismida** ko'rsatilgan tashkilotlarning xulosalarini ilova qilgan holda kiritadi.

Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar uchun o'zgartirilgan tariflarni tasdiqlash to'g'risidagi masala tegishinchcha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesida, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

#### **47-modda. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar uchun tariflarni amalga kiritish**

Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan tasdiqlangan tariflar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingandan keyin o'n besh kun o'tgach kuchga kiradi.

#### **13-bob. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarida ko'rsatilgan xizmatlarni hisobga olish**

#### **48-modda. Ichimlik suvining va oqova suvlarning hisobini yuritish**

Ichimlik suvining hisobi o'rnatilgan svn hisobga olish asbobi ko'rsatkichlari asosida ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari tomonidan yuritiladi.

Svn hisobga olish asbobi mavjud bo'limgan taqdirda, aholi uchun sarflangan ichimlik suvining hisobi belgilangan iste'mol normalari asosida, yuridik shaxslar uchun esa ichimlik suvi ta'minoti tarmoqlarining (ichimlik suvi quvurining) o'tkazish qobiliyatni bo'yicha yuritiladi.

Maishiy oqova suvlar miqdori olingan ichimlik suvining miqdoriga teng ravishda qabul qilinadi.

Ishlab chiqarish oqova suvlarning hisobi tovarlarni ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) chog'ida sarflangan ichimlik suvining (tovarga aylantirilgan, bug'langan va boshqa texnologik jarayonlarda

yo'qotilgan ichimlik suvi) miqdorini ushbu maqsadlar uchun olingan suvning miqdoridan chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

Maishiy va ishlab chiqarish oqova suvlarning miqdorini aniqlashda sug'orishga, qurilishga va hududni obodonlashtirishga sarflanadigan suvning miqdori hisobga olinmaydi.

#### **49-modda. Oqova suvlarning qo'shimcha chiqarib yuborilish miqdorini hisob-kitob qilish**

Suv markazlashtirilgan issiq suv ta'minoti va boshqa suv obyektlaridan shaxsiy ehtiyojlar uchun sarflanganda, oqova suvlar miqdori:

markazlashtirilgan issiq suvni hisobga olish asbobining ko'rsatkichlari bo'yicha, hisobga olish asbobi mavjud bo'lмаган taqdirda — issiq suv iste'moli normalari bo'yicha;

suv boshqa suv obyektlaridan olinganda — hisobga olish asbobi ko'rsatkichlari bo'yicha, hisobga olish asbobi mavjud bo'lмаган taqdirda — ushbu suv obyektlarining quvvati bo'yicha aniqlanadi.

Agar haqiqatda oqizib yuborilgan oqova suvlarning miqdori oqova suvlarning hisob-kitob qilingan miqdoridan kam bo'lsa, oqova suvlar miqdori iste'molchi tomonidan taqdim etilgan tasdiqlovchi hujjalarga muvofiq qayta hisoblanadi.

#### **50-modda. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanganlik uchun to'lov miqdorini hisob-kitob qilish**

Jismoniy va yuridik shaxslarning ichimlik suvi ta'minoti va (yoki) oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga ushbu Qonunning [36-moddasida](#) belgilangan tartibni buzgan holda ulanishi ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish deb topiladi.

Ichimlik suvi ta'minoti va (yoki) oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanib olingan taqdirda, iste'mol qilingan ichimlik suvining va (yoki) chiqarib yuborilgan oqova suvlarning miqdori yuridik shaxslar uchun ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlarining (ichimlik va (yoki) oqova suv quvurining) o'tkazish qobiliyatidan kelib chiqqan holda, jismoniy shaxslar uchun esa ichimlik suvini iste'mol qilish normalaridan kelib chiqqan holda hisob-kitob qilinadi. Bunda ichimlik suvi quvurida suv mavjud bo'lganligi, iste'molchining hisob-kitob qilingan ichimlik suvi miqdoridan foydalanish va uni oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmog'iga oqizib yuborish mumkinligi fakti inobatga olinadi.

## **14-bob. Yakunlovchi qoidalari**

### **51-modda. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi xalqaro hamkorlik**

Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi xalqaro hamkorlik O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

### **52-modda. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi yetkazilgan ziyon hamda zararning o'rni qoplanishi**

Ichimlik suvining sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga, davlat standartlariga muvofiq emasligi natijasida jismoniy shaxslarning sog'lig'iga yetkazilgan ziyonning o'rni qonunchilikka muvofiq ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlari tomonidan to'liq hajmda qoplanadi.

Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlaridan foydalanish qoidalari jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan rioya etmaganlik, shu jumladan ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga, inshootlarga shikast yetkazganlik, ta'mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirishga monelik qilganlik, suv obyektlarini ifloslantirganlik natijasida yetkazilgan zararning o'rni aybdor shaxslar tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda to'liq hajmda qoplanishi lozim.

### **53-modda. Nizolarni hal etish**

Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

### **54-modda. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik**

Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

### **55-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash**

O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

### **56-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

**57-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi**

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2022-yil 22-iyul,  
O'RQ-784-son

*(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.07.2022-y., 03/22/784/0661-son)*